

FRAZEOLOGIZMLARNING FORMULALARI

*Andijon davlat chet tillari instituti,
Soibova Masturabonu Abdukahhor qizi
Ilmiy maslahatchi: Xomidova Malohat*

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada frazeologizmlarning formulalari, ularning struktur-semantik xususiyatlari, shakllanish mexanizmlari hamda milliy-madaniy omillar bilan bog'liqligi chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda A.V.Kunin, V.V.Vinogradov, Sh.Safarov, R.Rasulov kabi tilshunoslarning frazeologiya nazariyasiga oid qarashlari ilmiy dalil sifatida keltiriladi. Frazeologik formulalarning grammatik modellari, semantik yadrosi va pragmatik funksiyalari turli misollar asosida yoritilib, o'zbek tilidagi frazeologik birliklarning tizimli tabiati izohlanadi. Maqola frazeologiyaning zamonaviy nazariy yondashuvlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *frazeologizm, formula, til modeli, semantika, metafora, milliy obraz, barqaror birlik.*

АННОТАЦИЯ: В данной научной статье подробно анализируются формулы фразеологизмов, их структурно-семантические особенности, механизмы формирования и связь с национально-культурными факторами. В исследовании приводятся научные положения А.В. Кунина, В.В. Виноградова, Ш. Сафарова, Р. Расулова как теоретическая основа. Грамматические модели фразеологических формул, их семантическое ядро и прагматические функции раскрываются на основе лингвистических примеров. Статья способствует углублению современных теоретических подходов к фразеологии.

Ключевые слова: *фразеологизм, формула, языковая модель, семантика, метафора, национальный образ, устойчивое выражение.*

Abstract: This scientific article provides an in-depth analysis of the formulas of phraseological units, their structural-semantic characteristics, formation mechanisms, and their connection with national-cultural factors. The study draws on theoretical frameworks proposed by A.V. Kunin, V.V. Vinogradov, Sh. Safarov, and R. Rasulov. The grammatical models of phraseological formulas, their semantic cores, and pragmatic functions are illustrated through linguistic examples. The article contributes to strengthening modern theoretical approaches to phraseology.

Key words: *phraseologism, formula, language pattern, semantics, metaphor, national imagery, fixed expression.*

Frazeologiya tilshunoslikning barqaror birikmalarni o'rganuvchi sohasi bo'lib, frazeologizmlar tildagi eng obrazli va semantik jihatdan murakkab birliklar sifatida e'tirof etiladi. Frazeologiya tildagi barqaror, ko'chma ma'noli, emotsional-ekspressiv

birliklarni o'rganuvchi fan bo'lib, uni tizim sifatida tahlil qilish so'nggi o'n yillikda lingvistik tadqiqotlarning muhim yo'nalishiga aylandi. Frazeologik birliklar xalqning mentaliteti, madaniy xotirasi, qadriyatlari, hayotiy tajribasi va nutq amaliyotini aks ettiradi. O'tmishda frazeologizmlar asosan leksik birlik sifatida o'rganilgan bo'lsa, bugungi lingvistika ularning tuzilish formulalarini aniqlashga, ya'ni frazeologizmlarning paydo bo'lish mexanizmini, struktura modelini, semantik yadrosini ilmiy asoslashga alohida e'tibor qaratmoqda. Tilning lug'at tarkibi alohida so'zlar bilan cheklanmaydi, unda xalqning tafakkuri va tarixiy tajribasini o'zida mujassam etgan ko'plab barqaror birliklar—frazeologizmlar mavjud. Zamonaviy tilshunoslikda frazeologizmlarni tizimli o'rganish jarayonida frazeologik formulalar tushunchasi alohida ilmiy-kategorik ahamiyat kasb etmoqda. Frazeologik formula frazeologizmlarni yasashning umumiy modeli bo'lib, ma'no va tuzilishning takrorlanadigan qoliplarini aniqlash imkonini beradi. Bu tushuncha frazeologizmlarning struktur asosini, ma'no yaratish mexanizmini va til tizimidagi takrorlanuvchi modellarni aniqlashga imkon beradi. Frazeologik formulalarni o'rganish o'zbek tili frazeologizmlarining mazmuniy boyligini, milliy-madaniy tabiatini hamda ularning tizimli mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Tilshunoslar — *A.V.Kunin, V.V.Vinogradov, Sh.Safarov* va boshqalar frazeologik birliklarning barqarorligi, ko'chma ma'noliligi, sintaktik yaxlitligini alohida jihat sifatida e'tirof etadilar. Frazeologik formula esa ana shu birliklarni tizimga soluvchi mavhum model bo'lib, frazeologizmlarning ichki tuzilishini o'rganishga yordam beradi.

A.V. Kunin frazeologik formulani “frazeologizmlarni yaratishga xizmat qiluvchi struktur-semantik qolip” deb ta'riflaydi. *V.V. Vinogradov* esa formulani semantik yadroga ega bo'lgan sintaktik model sifatida ko'radi. O'zbek tilshunosligida *Sh. Safarov, R. Rasulov, M. Jo'rayev, N. Mahmudovlar* formulalarni tilning kognitiv modeli, barqaror ma'no andozasi, obrazni qayta tiklovchi mexanizm sifatida o'rganadilar.

Frazeologik formulalar — tilning modellashtirilgan qatlami bo'lib, ular orqali: yangi frazeologizmlar qanday yaratiladi; ularning semantikasi qanday umumlashadi; obrazlar qanday tipik shakl oladi; milliy-madaniy kod qanday aks etadi kabi savollarga ilmiy javob topiladi.

Frazeologik formula — ma'nosi bir xil tamoyil asosida shakllanuvchi, struktur jihatdan o'xshash bo'lgan barqaror iboralarni hosil qiladigan til qolipi. Masalan, “ko'ngil + fe'l” formulasi quyidagi birikmalarni yaratadi: ko'ngli joyiga tushdi; ko'ngli yorishdi; ko'ngli sovidi.

Frazeologik formulalarning turlari

Grammatik formulalar frazeologizmlarning struktur qurilishini belgilaydi. Bu modellarda Grammatik tarkib o'zgarmaydi, faqat mazmun boyiydi. Masalan, [Fe'l + ot] modeli: bosh qotirmoq gap ko'tarmoq yo'l ochmoq

[Sifat + ot] modeli: og‘zi qulog‘ida ko‘ngli tog‘dek

Semantik formulalar frazeologizmning ma’no yadrosi va tushuncha tarmog‘ini belgilaydi. Qo‘rquv semantikasiga oid formula: yuragi orqaga tortdi rangi oqardi

Turlicha leksemalar ishlatilgan bo‘lsa ham, semantik tarkib bir xil — qo‘rquv.

Quvonch semantik formulasi: boshi osmonga yetdi yuziga tabassum yugurdi
Pragmatik formulalar frazeologizm nutqiy kontekstga ko‘ra baholash, kinoya yoki hissiy munosabatni bildiradi. Kinoya formulasi: ko‘zi ochildi (aslida: ilgari bilmagan); burni osildi (hafsalasi pir bo‘ldi; qulog‘i ding (sergak bo‘ldi). Bu formulalar pragmatik maqsadga ko‘ra takrorlanuvchi qoliplar sanaladi.

Frazeologik formulalarning yaratilish mexanizmlari

Tilshunoslikda frazeologizmlar quyidagi mexanizmlar asosida shakllanishi isbotlangan:

Metafora asosidagi formula - obrazli o‘xshatish asosida: vaqt uchdi (tez o‘tdi)
Metonimiya asosidagi formula - Tana a’zosining funksiyasi orqali ma’no ko‘chishi: yuragi muzlab ketdi (qo‘rqdi); boshi qotdi (hayron bo‘ldi).

Milliy-madaniy obrazlar asosidagi formula - O‘zbek tilida uchraydigan barqaror obrazlar: tog‘ (katta, ulug‘lik); yurak (his-tuyg‘u markazi); ko‘z (bilim, idrok).

Formulalarning nutqdagi ahamiyati juda katta. Tilni o‘rganishni osonlashtiradi, o‘quvchilar frazeologizmi model orqali yaxshiroq tushunadi. Frazeologik tahlilni tizimlashtiradi ya’ni iboralarni alohida emas, formulalar asosida o‘rganish samarali-roqdir. Lingvistik nazariyaga ilmiy asos yaratadi, frazeologiya tizimli yo‘nalishga aylanadi. Nutq boyligini oshirib, o‘zbek tiliga xos iboralarni puxta qo‘llashga imkon beradi. Xulosa qilib aytganda, frazeologik formulalar frazeologizmlar tizimining markaziy qismi bo‘lib, ular orqali iboralar qanday shakllanishi, ma’nosi qanday umumlashishi va qaysi obrazlar asosida vujudga kelishi aniqlanadi. Formulalar frazeologiyani chuqur o‘rganishga ilmiy imkon yaratadi va o‘zbek tilining boy obrazli tabiatini anglashga yordam beradi. Ular frazeologik birliklarni yodlash emas, balki tushunishga asoslangan yondashuvni yo‘lga qo‘yadi. Frazeologik formulalar o‘zbek tili frazeologiyasining asosiy struktura elementlaridan biridir. Ular frazeologizmlarning semantik yadrosini, grammatik barqarorligini va pragmatik funksiyasini belgilaydi. Formulalarni o‘rganish frazeologiyaning tizimli rivojlanishiga, barqaror birikmalarning tuzilishi va mazmuni haqida chuqur ilmiy xulosalar chiqarishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. — Москва: Высшая школа, 1996.
2. Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии. — Москва, 1972.
3. Rasulov R. O‘zbek tilining frazeologiyasi. — Toshkent: Fan, 1991.
4. Kerimov T. Frazeologiyada semantik tahlil. — Boku, 2001.
5. Mironov M. Lingvistik modellashtirish asoslari. — Moskva, 1985.